

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI TASHKIL ETISHNING YANGI MODELINI  
VA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMLARINI SIRDARYO  
VILOYATIDA JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lamini kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida:

1. Sog'liqni saqlash vazirligining Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga asosida Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasini (keyingi o'rinlarda — tajriba-sinov loyihasi) amalga oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, tajriba-sinov loyihasi doirasida:

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida oilaviy shifokor, uning o'rta tibbiyot xodimlaridan iborat terapiya va pediatriya yo'nalishlari bo'yicha yordamchilari, patronaj hamshiralari va doyardan tashkil topgan guruhlar tuziladi;

har bir tibbiyot muassasasi darajasida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi (keyingi o'rinlarda — kafolatlangan paket) ishlab chiqiladi;

kafolatlangan paket birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va shifoxonalarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taqdim etiladi. Bunda oilaviy shifokor har bir muassasa turi bo'yicha tibbiy xizmatlar hajmi va klinik protokollarga muvofiq tor soha shifokorlariga va zarur hollarda tuman, viloyat hamda respublika darajasidagi shifoxonalarga yo'llanmalar beradi. Respublika darajasidagi shifoxonalarga yo'llanmalar viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tartibga rioya etilmagan hollarda, shuningdek, kafolatlangan paketga kiritilmagan tibbiy xizmatlar pullik asosda ko'rsatiladi;

aholining sog'lig'i bilan bog'liq ko'rsatkichlarini monitoring qilish, ularni tibbiyot muassasasiga birlashtirish, kasallik tarixini yuritish, dori vositalari uchun retsept yozish va kafolatlangan paketga muvofiq tibbiyot muassasalariga yo'naltirish yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ishlab

chiqilib, unga erishilganligi monitoring qilinadi hamda natijalariga qarab qo'shimcha rag'batlantirish to'lovlari to'lanadi;

kafolatlangan paket asosida aholining barcha qatlamlariga sifatli va to'liq tibbiy yordam ko'rsatilishini moliyalashtirishga qaratilgan davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

3. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev), Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I.I. Norqulov) bilan birgalikda 2021-yil 1-fevralga qadar tajriba-sinov loyihasi doirasida:

kafolatlangan paketga kiritiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari hajmini;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash mezonlari hamda rag'batlantirish tartibini tasdiqlasin.

4. Tajriba-sinov loyihasi doirasida quyidagilarni nazarda tutuvchi tibbiy profilaktika va patronaj tizimi yo'lga qo'yilsin:

aholini mavjud xavf omillaridan kelib chiqib xavf guruhlariga bo'lish;

o'rta va yuqori xavf guruhlariga kiruvchi aholining belgilangan muddatlarda tibbiy ko'riklardan o'tishini ta'minlash va salomatligini davriy kuzatuvga olish;

yuqori xavf guruhiga kiruvchi va mustaqil ravishda tibbiyot muassasasiga kela olmaydigan bemorlarni doimiy kuzatuvga olish hamda uyiga borgan holda tibbiy xizmat ko'rsatish;

profilaktik ko'riklar o'rniga hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan kasalliklar bo'yicha maqsadli skrining tekshiruvlarini o'tkazish;

patronaj ko'riklarini optimizatsiya qilib, yangi maqsadli patronaj tizimini joriy qilish.

Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Sh. Inoyatov):

bir oy muddatda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari asosida Sirdaryo viloyati birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlariga joriy qilinayotgan yangi tibbiy profilaktika va patronaj tizimini o'rgatish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilsin;

tajriba-sinov loyihasi yakunlariga ko'ra mazkur bandedda nazarda tutilgan tizimni respublikaning boshqa hududlarida qo'llash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) 2020-yil 1-dekabrden tashkil etilsin.

*(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son) Oldingi tahrirga qarang.*

Jamg'armani saqlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish hajmi Davlat budjetidan kafolatlangan tibbiy xizmatlarni xarid qilish uchun ajratiladigan mablag'larning 2 foizi miqdorida belgilansin. Bunda, tibbiy xizmatlarni xarid qilish uchun ajratiladigan budjet mablag'lari Jamg'armaning budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag'larning qoldig'i Jamg'arma ixtiyorida qoldiriladi.

*(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish, boshqarish hamda ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash;

aholining barcha qatlamlarini kafolatlangan paket doirasida sifatli va zarur tibbiy yordam bilan ta'minlash maqsadida tibbiy xizmatlar strategik xaridi tizimini joriy etish;

tajriba-sinov loyihasi doirasida Davlat budjetidan kafolatlangan paketni moliyalashtirish maqsadida ajratiladigan mablag'larni jamlash, boshqarish, ularning maqsadli va samarali sarflanishini tashkil etish;

tajriba-sinov loyihasining natijalariga ko'ra, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini respublikaning boshqa hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

6. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq tajriba-sinov loyihasi doirasida 2021-yil 1-iyuldan boshlab:

Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlarini moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan mablag'lar (kapital qo'yilmalar, fan va ilmiy izlanishlar, emlash va boshqa maqsadli dasturlar uchun ajratiladigan mablag'lar bundan mustasno) Jamg'armaning alohida shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga xarajatlar tasnifining bir satrida bosqichma-bosqich o'tkazib beriladi;

Jamg'arma tibbiyot tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish orqali ular faoliyatini moliyalashtirib boradi. Bunda, tuman (shahar) va viloyat darajasidagi shifoxonalarga ajratiladigan mablag'larning 10 foizidan kam bo'lmagan qismi har bir davolangan holatlar soni hamda bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib belgilanadi;

kafolatlangan paket asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatishga nodavlat tibbiyot tashkilotlari ham jalb qilinishi mumkin;

ajratilgan budget mablag'larining samaradorligi va natijadorligi Jamg'arma tomonidan doimiy monitoring qilib boriladi;

kafolatlangan paketni belgilash, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini baholash hamda uning tasdiqlangan standartlarga muvofiqligini monitoring va nazorat qilish Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Quyidagilar:

Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish konsepsiyasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq;

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom [3-ilovaga](#) muvofiq;

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(7-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori asosida chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi Kuzatuv kengashining (keyingi o'rinlarda — Kuzatuv kengashi) tarkibi [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

8. Kuzatuv kengashi (L.N. Tuychiyev, A.Sh. Inoyatov) quyidagilarni ta'minlasin:

a) 2020-yil yakuniga qadar:

Jamg'arma xodimlarini tibbiyot, iqtisodiyot, moliya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa sohalar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar orasidan to'ldirish;

tibbiyot muassasalari xodimlari, ulardagi mavjud tibbiy texnika va tibbiyot buyumlari hamda axborot texnologiyalari jihozlarini xatlovdan o'tkazib, elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda Sog'liqni saqlash vazirligi, Jamg'arma, Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi va tibbiyot muassasalari xodimlari uchun sog'liqni saqlash tizimini tashkil qilish, davlat tibbiy sug'urtasini joriy etish hamda yangi kiritilayotgan tibbiy yo'nalishlarga qayta tayyorlash bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish;

b) 2021-yil 1-mayga qadar:

tibbiyot muassasalariga biriktirilgan aholini xatlovdan o'tkazib, ularning sog'ligi va kasallanish ko'rsatkichlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

kafolatlangan paket uchun to'lovlarni natijaga asoslangan moliyalashtirish usullari (jon boshiga moliyalashtirish, davolangan

holat, bajarilgan ishlar natijalari va boshqalar) orqali amalga oshirish mexanizmi va Jamg'armaga Davlat budjetidan mablag'larni moliyalashtirish tartibini tasdiqlash. Bunda, har bir birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasining jon boshiga moliyalashtirish hajmi tasdiqlangan bazaviy stavkalar asosida belgilanishini ko'zda tutish;

*(8-band "b" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

tibbiyot muassasalarida aholiga kafolatlangan paket asosida tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur moddiy texnik bazani yaratish;

v) 2021-yil 1-iyulga qadar:

"elektron poliklinika" va davlat tibbiy sug'urtasining axborot tizimlari hamda ma'lumotlar bazasini yaratish va to'liq ishga tushirish; davlat tibbiy sug'urtasi tizimida faoliyat ko'rsatadigan tibbiyot tashkilotlari bilan tegishli shartnomalar tuzish.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Kuzatuv kengashiga o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi huquqlar berilsin:

Jamg'armani saqlash uchun ajratilgan mablag'lar doirasida Jamg'arma tarkibiy tuzilmasi, shtat birliklari soni, xodimlarni moddiy rag'batlantirish shartlarini belgilash va shartnoma asosida mutaxassislar jalb qilish;

*(8-band "v" kichik bandining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-son qaroriga asosan to'rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

zarur moliyaviy, statistik va boshqa ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan to'g'ridan-to'g'ri olish;

manfaatdor vazirlik va idoralardan zarur mutaxassislarni jalb qilish;

Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, davlat tibbiyot muassasalari va ularning xodimlari uchun belgilangan normativ va talablarga o'zgartirish kiritish, shu jumladan yangi mutaxassisliklar kiritish, tibbiyot muassasalari profilini o'zgartirish;

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ma'qullangan xalqaro klinik protokollar, kasalliklar va holatlarga tashxis qo'yish hamda ularni davolashning tibbiy uslublarini belgilash.

9. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Sh. Inoyatov) va Sirdaryo viloyati hokimligi (G'.G'. Mirzayev) ikki oy muddatda viloyat darajasidagi tibbiyot muassasalari faoliyatini o'rganib, ular negizida "tibbiyot klasteri"ni tashkil qilish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

samarasiz faoliyat yuritayotgan bo'g'inlarni qisqartirish, qayta moslashtirish va boshqaruv xarajatlarini maqbullashtirish;

Guliston tibbiyot kolleji negizida tibbiyot oliy ta'lim muassasasini tashkil etish uchun xususiy sektorni jalb qilish.

10. Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov):

Sirdaryo viloyatida tibbiyot muassasalarining tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, aholi sog'ligini monitoring qilib borish imkonini beruvchi yagona elektron platformani yaratish uchun Sog'liqni saqlash vazirligining hisob-kitoblariga muvofiq zarur mablag'larni ajratsin;

tajriba-sinov loyihasi doirasida tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining 100 foizi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash mezonlaridan kelib chiqib, ularni rag'batlantirishga yo'naltirilsin;

tajriba-sinov loyihasi doirasida oilaviy shifokorlarni zarur tibbiy buyumlar va ambulator sharoitda davolash uchun dori vositalari bilan ta'minlash maqsadida Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag'larning 5 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha mablag' ajratsin. Bunda ushbu mablag'lar Sog'liqni saqlash vazirligining markazlashgan tadbirlari uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilsin;

Jamg'arma faoliyatini tashkil etish uchun zarur mablag'larni asoslantirilgan hisob-kitoblar bo'yicha 2020-yilda Davlat budjeti parametrlarida sog'liqni saqlash sohasi uchun nazarda tutilgan mablag'larning cheklangan miqdorlari doirasida ajratsin va 2021-yildan boshlab har yili tegishli yil uchun budjet parametrlarida nazarda tutsin;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jamg'armaga 4 ta xizmat avtotransporti, shu jumladan 3 ta shaxsan biriktirilgan yengil avtomobil va 1 ta navbatchi mikroavtobus sotib olish va saqlashga limit ajratsin.

*(10-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son)*

11. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Jamg'armaga tegishincha Toshkent va Guliston shaharlarida bino ajratilishini ta'minlasin.

12. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh.M. Sadikov):

Sirdaryo viloyati tibbiyot muassasalarining o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan optik tolali aloqa liniyalari orqali Internet tarmog'iga ulanishini;

Jamg'armani belgilangan tartibda zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqasi bilan ta'minlasin.

13. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritsin.

14. Mazkur qarorning alohida bandlari ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan harakatlar rejasi [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

15. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari A.Sh. Inoyatov va Sirdaryo viloyati hokimi G'.G'. Mirzayev belgilansin.

Qaror ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari L.N. Tuychiyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2020-yil 12-noyabr,  
PQ-4890-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son qaroriga

1-ILOVA

## **Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish**

### **KONSEPSIYASI**

1. Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid [Davlat dasturi](#) ijrosi doirasida ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordamni ko'rsatish va uni moliyalashtirishda davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish va aprobatsiyadan o'tkazishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Bunda, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini 2021-yil 1-iyuldan 2022-yil yakunigacha bo'lgan muddatda Sirdaryo viloyatida aprobatsiyadan o'tkazish va uning ijobiy natijalarini 2023-yildan boshlab respublikaning boshqa hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutiladi.

### **1-bob. Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash tizimining joriy holati**

3. Sirdaryo viloyati aholisi soni 846,3 ming nafarga yetib, ularning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 71,9 yilni tashkil etmoqda (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich — 75,1 yil).

O'tgan o'n yil davomida viloyatda tug'ilish darajasi har 1 000 nafar aholiga nisbatan o'rtacha 24,8 promillega, o'lim darajasi esa 4,6 promillega to'g'ri kelgan.

Hududda umumiy kasallanish darajasi ko'rsatkichi kasalliklar turidan kelib chiqib har 100 000 nafar aholiga nisbatan 3,1 mingga qayd etilgan.

Bugungi kunda viloyatda 137 ta sog'liqni saqlash muassasasi, shu jumladan 99 ta ambulator-poliklinika muassasasi, 26 ta statsionar davolash-profilaktika muassasasi va 12 ta ma'muriy muassasa mavjud.

Ushbu muassasalarda 1,4 ming nafar shifokor va 12,5 ming nafar o'rta tibbiyot xodimi faoliyat ko'rsatmoqda. Bunda, shifokorlar soni har 10 000 nafar aholiga nisbatan 17,6 nafarni (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich — 23,0 nafar), o'rta tibbiyot xodimlari esa — 150,6 nafarni (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich — 103,6 nafar) tashkil etmoqda.

2019-yilda viloyat sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish uchun davlat budjetidan 358,9 mlrd so'm ajratilgan. Ushbu mablag'lar doirasida tibbiyot muassasalarida 7589,1 ming ko'rik ambulator sharoitda amalga oshirilgan va 162,4 ming nafar bemorga statsionar tarzda tibbiy yordam ko'rsatilgan.

4. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning amaldagi tizimi sohaga ajratilayotgan mablag'larning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan:

sog'liqni saqlash tizimidagi samarasiz xarajatlar ulushi 40 foizgacha yetmoqda;

aholining tibbiy xizmatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri to'lovlari darajasi 40 — 45 foiz atrofida saqlanib qolmoqda;

sog'liqni saqlash sohasiga davlat budjetidan ajratilayotgan jami mablag'larning 60 foizidan ko'pini statsionar davolash-profilaktika yordami xarajatlari tashkil etmoqda;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalariga ajratilayotgan mablag'larning asosiy qismi ish haqiga sarflanib, atigi 10 foizi tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilmoqda;

aholiga tibbiy yordam ko'rsatish sohasida davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlari uchun teng sharoitlar va raqobat muhiti yaratilmagani tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga to'siq bo'lmoqda;

tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligi to'liq ta'minlanmayapti, natijada ushbu muassasalarda boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish hamda xodimlarga munosib oylik ish haqi to'lash imkoniyatlari cheklanmoqda;



tibbiyot muassasalaridagi mavjud shifokorlarning o'rtacha o'rindoshlik koeffitsiyenti 2,0 dan oshmoqda (respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich — 1,4), shuningdek, 700 dan ziyod shifokor shtat birligi vakantligicha qolmoqda.

## **2-bob. Konsepsiyaning asosiy maqsadi va vazifalari**

5. Konsepsiyaning asosiy maqsadi 2021-yil 1-iyuldan 2022-yil yakunigacha bo'lgan muddatda Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish (keyingi o'rinlarda — tajriba-sinov loyihasi) orqali ushbu hududda tibbiy xizmatlar ko'rsatish va sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning yangi modellarini aprotatsiyadan o'tkazishdan iborat.

6. Konsepsiyani amalga oshirish doirasida quyidagi asosiy vazifalar bajarilishi zarur:

sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatishning yangi modellarini amaliyotga tatbiq etish;

tibbiy xizmatlar uchun to'lovlarni natijaga asoslangan moliyalashtirish usullari (jon boshiga moliyalashtirish, "davolangan holat" va bajarilgan ishlar natijalari) orqali amalga oshirish mexanizmini joriy qilish;

davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlar strategik xaridini amalga oshirish metodologiyasini ishlab chiqish;

barcha darajadagi ambulator-poliklinika hamda statsionar davolash-profilaktika muassasalarida zamonaviy klinik va iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini yaratish;

mutaxassislarni o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish orqali sog'liqni saqlashni boshqarish, moliyalashtirish hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohalarida kadrlar salohiyatini mustahkamlash;

tajriba-sinov loyihasi doirasida tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohasida integratsiyalashgan axborot tizimi va resurslarini yaratish hamda ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash.

## **3-bob. Tajriba-sinov loyihasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari**

**7. Tibbiy xizmatlar ko'rsatish modelini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami rolini kuchaytirishni inobatga olgan holda takomillashtirish:**

kasalliklar turlari va kasallanish darajasidan kelib chiqqan holda, yuqumli bo'lmagan kasalliklarni davolash sohasidagi klinik amaliyotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;

sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini muassasalarida hamda statsionar tibbiyot muassasalarida ko'rsatiladigan tibbiy

yordam hajmini dalilli tibbiyot va xalqaro standartlarga asoslangan holda qayta ko'rib chiqish;

kasalliklarni erta aniqlash va bemorlarni kuzatishda hamshiralar hamda umumiy amaliyot shifokorlarining rolini oshirish va vazifalarini kengaytirish;

tibbiy-profilaktika xizmatlarini ko'rsatishda barcha darajadagi tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va birin-ketinlikni ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish.

#### **8. Sog'liqni saqlashni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish:**

barcha davolash-profilaktika muassasalarining o'zaro uzviy hamkorligini ta'minlash va uni muvofiqlashtirish samaradorligini oshirish;

bemorning yo'nalishini belgilash, unga yo'llanmalar berish, bemorlarni kuzatib borish, tibbiy-profilaktika yordami sifatini nazorat qilish va tibbiy yordamni aholiga yaqinlashtirishda birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining rolini kuchaytirish;

tuman tibbiyot birlashmalarida uning tarkibidagi tibbiyot muassasalari ishtirokidagi ichki tarmoqlarni, shuningdek, viloyat statsionar tibbiyot muassasalari birlashmalarini tibbiy xizmatlar ko'rsatish hamda ularni taqdim etish to'g'risida shartnomalar tuzish bo'yicha asosiy tuzilmalar sifatida tashkil etish.

#### **9. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish:**

tibbiy xizmatlar xaridini tashkil etishda tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar tarmoqlari va birlashmalariga nisbatan qo'llaniladigan aralash moliyalashtirish mexanizmlarini joriy qilish;

samarali tibbiy profilaktikani va bemorlarni kuzatish amaliyotini rag'batlantirish, shu asosda statsionar tibbiy xizmatlardan foydalanishni qisqartirish nuqtai nazaridan tibbiyot birlashmalari, tibbiyot muassasalari va tibbiyot xodimlari faoliyatini baholashning moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

sog'liqni saqlash budjeti tarkibini umumiy budjet mablag'lariga asoslangan holda qayta ko'rib chiqish;

sog'liqni saqlash resurslarini aholining tarkibi va kasallanish ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda hududiy jihatdan adolatli taqsimlash;

aholi uchun aniq imtiyozlarni belgilagan holda davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlarning universal to'plamini ishlab chiqish.

#### **10. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi islohotlar doirasida sog'liqni saqlashning integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish:**

zarur axborotni yig'ish va tahlil qilish, tajriba-sinov loyihasini monitoring qilish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish va sog'liqni saqlashni moliyalashtirish holatini baholash imkonini beruvchi axborot tizimini yaratish, shuningdek, bu sohada uzoq muddatli istiqbol uchun rivojlantirish asoslarini belgilash;

tibbiy xizmatlar ko'rsatish darajalari va tizim ishtirokchilari o'rtasida samarali va shaffof axborot almashinuvini ta'minlash, chekka qishloq hududlarida tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

joylardagi barcha aholini sog'liqni saqlash milliy integratsiyalashgan axborot tizimi (SSMIAT)da jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami (JShShIR) orqali ro'yxatga olish;

tibbiy xizmatlarning milliy tasnifini ishlab chiqish va tasdiqlash;

tibbiy xizmatlar strategik xaridi mexanizmlarini samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan, tibbiy axborot va faoliyat standartlashtirilishini ta'minlaydigan kodlash va tasniflash bo'yicha yangi tizimlarni yo'lga qo'yish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ularni keng joriy qilish;

tajriba-sinov loyihasining tegishli axborot tizimini rivojlantirish uchun zarur axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish va ushbu tizim ishtirokchilarini zarur kompyuter asbob-uskunalar bilan ta'minlash.

#### **4-bob. Kutilayotgan natijalar**

II. Konsepsiyani amalga oshirish natijasida va tajriba-sinov loyihasi doirasida:

sog'liqni saqlash tizimidagi samarasiz xarajatlar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish;

tibbiy xizmatlar bozorida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda aholining tibbiy yordam uchun to'g'ridan-to'g'ri to'lovlari darajasini kamaytirish;

sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushini oshirish;

tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish;

aholining ijtimoiy zaif toifalari vakillarini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish;

aholiga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam ko'rsatishga xususiy tibbiyot tashkilotlarini jalb qilgan holda tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son qaroriga  
2-ILOVA

**Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini tajriba-sinov tariqasida joriy etish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha  
"YO'L XARITASI"**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirlar nomlari</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Amalga oshirish muddatlari</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
1.	Davlat boshqaruvi organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar rahbar va mas'ul xodimlariga Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar (tibbiy yordam ko'rsatish va moliyalashtirishning yangi mexanizmlari va boshqalar) to'g'risida ma'lumot berish.	Davlat boshqaruvi organlari, manfaatdor vazirlik hamda idoralar rahbar va mas'ul xodimlari uchun seminar va uchrashuvlar tashkil etish.	2021-yil 1-yanvar	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, Sog'liqni saqlash vazirligi
2.	Sirdaryo viloyatidagi davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlarini xatlovdan o'tkazish.	1. Idoralararo ishchi guruhlarini tashkil etish. 2. Tibbiyot tashkilotlaridagi mavjud tibbiy texnika hamda jihozlarni xatlovdan o'tkazish va takliflar tayyorlash. 3. Tibbiyot tashkilotlarini kadrlar bilan ta'minlanganlik	2021-yil 1-yanvar	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, Sirdaryo viloyati hokimiyati, Davlat statistika qo'mitasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi

		<p>darajasini o'rganish va takliflar tayyorlash.</p> <p>4. Har bir davlat tibbiyot muassasasining unga birlashtirilgan aholi soni va tasnifi ko'rsatilgan pasportini tuzish.</p>		
3.	<p>Tibbiy xizmatlar ko'rsatilishining yangi modelini ishlab chiqish.</p>	<p>1. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida oilaviy shifokor, uning o'rta tibbiyot xodimlaridan iborat bo'lgan terapiya va pediatriya yo'nalishlari bo'yicha yordamchilari, patronaj hamshiralari va doya tarkibidagi guruhlar tashkil qilish.</p> <p>2. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ko'p mutaxassisli jamoalarni (reabilitolog, kineziolog, valeolog va boshqalar) shakllantirish.</p> <p>3. Aholini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va ularda faoliyat yuritadigan shifokorlarga birlashtirish.</p> <p>4. Bemor marshruti va tibbiy yordam ko'rsatish darajalarini muvofiqlashtirish</p>	2021-yil 1-yanvar	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi</p>

		<p>mexanizmlarini ishlab chiqish.</p> <p>5. Sirdaryo viloyatidagi barcha davlat tibbiyot tashkilotlari uchun tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi ning modeli va tavsiyaviy shtat jadvalini joriy etish tartibini ishlab chiqish.</p>		
4.	<p>Sirdaryo viloyatidagi davlat tibbiyot muassasalari faoliyatini baholash bo'yicha kompleks o'rganish loyihasini KfW banki va JSST ko'magida amalga oshirish.</p>	<p>1. Loyihani amalga oshirish uchun konsalting tashkilotini yollash.</p> <p>2. Baholash vositalari va uslubiyotini aniqlash.</p> <p>3. O'rganish va tadqiqotlarni amalga oshirish.</p> <p>4. To'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va yakuniy hisobotni tayyorlash.</p>	<p>2021-yil 1-aprel</p>	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,</p> <p>Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (kelishuv asosida),</p> <p>Sirdaryo viloyati hokimligi</p>
5.	<p>Sirdaryo viloyati tibbiyot tashkilotlarini moliyalashtirish usullari va tartibini ishlab chiqish.</p>	<p>1. Tajriba-sinov loyihasida tibbiy xizmatlar ko'rsatilishining yangi modelini inobatga olgan holda davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketini shakllantirish.</p> <p>2. Kafolatlangan paketga kiritilgan xizmatlarni moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish</p>	<p>2021-yil 1-fevral</p>	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Moliya vazirligi, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi</p>

		(jon boshiga moliyalashtirish, klinik xarajatlar guruhlari uchun to'lovlarning soddalashtirilgan modeli, faoliyat natijasiga asoslangan to'lov usuli, xizmat uchun to'lov, global budjetva boshqalar).		
6.	Sirdaryo viloyati miqyosida tibbiy yordam ko'rsatish uchun ajratiladigan budjet mablag'larini Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi g'azna hisobvarag'ida jamlash tartibini ishlab chiqish.	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga Davlat budjetidan mablag'larni ajratish tartibini ishlab chiqish va jamg'armaning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash.	2021-yil 1-aprel	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi
7.	Mavjud tibbiy xizmatlar xarajatlari tahlilini o'tkazish va davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmi doirasida yangi xizmatlar paketlarini moliyalashtirish uchun zarur moliyaviy mablag'lar hisob-kitobini (costing) xalqaro tashkilotlar ko'magida va xalqaro	1. Yangi xizmatlar paketlarini moliyalashtirish uchun zarur moliyaviy mablag'lar hisob-kitobini amalga oshirish uslubiyotini ishlab chiqish. 2. Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmi doirasida yangi xizmatlar paketlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'ladigan mablag'lar hisob-kitobini amalga oshirish.	2021-yil 1-aprel	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi

	uslubiyotga asoslangan holda amalga oshirish.			
8.	Davlat tibbiy sug'urtasini joriy qilish bo'yicha targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	<p>1. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy qilishga doir teledasturlar tayyorlash.</p> <p>2. Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish bo'yicha targ'ibot materiallarini yaratish.</p> <p>3. Tibbiyot xodimlari va soha mutaxassislari uchun davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish bo'yicha seminarlar tashkil etish.</p>	2021-yil 1-may	<p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (<i>kelishuv asosida</i>),</p> <p>Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi,</p> <p>Sirdaryo viloyati hokimligi</p>
9.	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish.	<p>1. Rejali o'qitish (seminarlar, masofaviy o'quv kurslari)ni amalga oshirish.</p> <p>2. Yo'naltiruvchi seminarlar o'tkazish.</p> <p>3. Xorijiy o'quv safarlarini tashkillashtirish.</p> <p>4. Tajriba almashish bo'yicha xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb etish.</p>	<p>2020-yil 1-dekabr —</p> <p>2021-yil 1-iyun</p>	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,</p> <p>Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (<i>kelishuv asosida</i>)</p>
10	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi va Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot	1. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi va Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot tashkilotlari o'rtasida shartnomalar	2021-yil 1-iyun	<p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Moliya vazirligi</p>



	tashkilotlari o'rtasida shartnoma tuzish tartibini ishlab chiqish.	tuzish va bajarish prinsiplari, qoidalari va tartiblarini ishlab chiqish.  2. Jamg'arma va Sirdaryo viloyatidagi tibbiyot tashkilotlari o'rtasida tuziladigan shartnomalarning namunaviy shakllarini ishlab chiqish.  3. Tibbiy xizmatlar strategik xaridlari mexanizmini ishlab chiqish.		
11	Alohida surunkali kasalliklarni ambulator davolash uchun qabul qilinadigan dori vositalari bo'yicha dorixonalarni sarf-xarajatlarini qoplash mexanizmini ishlab chiqish.	1. Alohida surunkali kasalliklarni ambulator davolash uchun qabul qilinadigan dori vositalarini maksimal qoplash narxlarini belgilash tartibini ishlab chiqish. 2. Dorixonalarning alohida surunkali kasalliklarni ambulator davolash uchun qabul qilinadigan dori vositalari bo'yicha sarf-xarajatlarini qoplash mexanizmini ishlab chiqish.	2021-yil 1-iyun	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,  Sog'liqni saqlash vazirligi,  Moliya vazirligi
12	Davlat tibbiy sug'urtasining axborot tizimi, ma'lumotlar bazasi va boshqa axborot resurslarini yaratish.	1. Davlat tibbiy sug'urtasining axborot tizimi texnik talablarini aniqlash va ular asosida axborot tizimni yaratish. 2. Davlat tibbiy sug'urtasi ma'lumotlar bazasining texnik	2021-yil 1-iyun	Sog'liqni saqlash vazirligi,  Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi

		<p>talablarini aniqlash va ular asosida ma'lumotlar bazasini yaratish.</p> <p>3. Davlat tibbiy sug'urtasining boshqa axborot resurslarini texnik talablarini aniqlash va ular asosida axborot resurslarni yaratish.</p>		
13	<p>Ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning turi va hajmiga qarab tibbiyot tashkilotlarini monitoring qilish va baholash tizimi ko'rsatkichlarini hamda faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.</p>	<p>1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan hamda boshqa xalqaro tan olingan tibbiyot tashkilotlarining monitoring va baholash tizimi ko'rsatkichlarini o'rganish, moslashtirish va ishlab chiqish.</p> <p>2. Tibbiyot tashkilotlarining monitoring va baholash natijalari asosida ularning faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.</p>	2021-yil 1-iyun	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi</p>
14	<p>Tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish jarayonida funksional majburiyatlarni taqsimlash orqali sifatni ta'minlash va nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.</p>	<p>1. Tibbiy audit o'tkazish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Klinik protokollar, ko'rsatmalar va standartlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash.</p> <p>3. Ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini</p>	2021-yil 1-iyun	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi</p>

		baholash hamda uning tasdiqlangan standartlarga muvofiqligini monitoring va nazorat qilish.		
15	Tibbiyot muassasalari xodimlarining malakaviy bilim va ko'nikmalarini oshirish.	<p>1. Moliyaviy va klinik boshqaruv, tibbiy xizmatlar strategik xaridlari va boshqa yo'nalishlar bo'yicha rahbar va mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. Mavjud xalqaro va mahalliy ta'lim dasturlari, klinik standartlar va protokollar tahlilini amalga oshirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi doirasida tibbiy xizmatlar ko'rsatishga o'rgatish.</p> <p>3. Qisqa va uzoq muddatli klinik o'quv dasturlari va tibbiy ma'lumotlarni kodlash bo'yicha o'quv kurslarini amalga oshirish.</p>	Doimiy ravishda	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi,</p> <p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,</p> <p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,</p> <p>Moliya vazirligi,</p> <p>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi</p>
16	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi va tibbiyot tashkilotlari o'rtasida tibbiy xizmatlar xaridi bo'yicha	1. Jamg'arma va tibbiyot tashkilotlari o'rtasida tibbiy xizmatlar xaridi bo'yicha shartnomalarni imzolash.	2021-yil 1-iyul	<p>Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,</p> <p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p>

	shartnomalar tuzish.	2. Jamg'arma bilan tibbiy xizmatlar xaridi bo'yicha shartnoma tuzgan tibbiyot tashkilotlari elektron ro'yxatini yaratish.		
17	Tajriba-sinov loyihasi natijalarini baholash.	1. Loyiha natijalarini baholash bo'yicha mustaqil tadqiqot o'tkazish uchun tanlov asosida xalqaro tashkilotlarni jalb qilish.  2. Loyiha natijalarini baholash bo'yicha mustaqil tadqiqot natijalarini chop etish.	2022-yil 1-sentabr	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,  Sog'liqni saqlash vazirligi,  Moliya vazirligi,  Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi
18	Tajriba-sinov loyihasi natijalarini tanqidiy tahlil qilish asosida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini bosqichma-bosqich respublikaning boshqa hududlariga joriy qilish.	Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini 2023-yil 1-yanvardan boshlab Samarqand, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida joriy qilish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-yil 15-dekabr	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi,  Sog'liqni saqlash vazirligi,  Moliya vazirligi,  Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi,  Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son qaroriga  
3-ILOVA

## **Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi to'g'risidagi**

### **VAQTINCHALIK NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga, Jamg'arma Kuzatuv kengashining qarorlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Jamg'arma o'z faoliyati to'g'risida Jamg'arma Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

4. Jamg'arma o'z faoliyatini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Jamg'arma davlat muassasasi hisoblanadi, mustaqil balansga, shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan dumaloq muhrga, shtamplarga va blankalarga ega bo'ladi.

6. Jamg'armaning ijro etuvchi apparatini saqlash Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

## **2-bob. Jamg'armaning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari**

7. Jamg'armaning asosiy maqsadi aholini davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash, uning sifati va hajmini oshirish hamda tibbiy xizmatlar bozorini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish maqsadida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish va boshqarishdan iborat.

8. Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish, boshqarish hamda ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta'minlash;

2021-yil 1-iyuldan 2022-yil yakunigacha bo'lgan muddatda Sirdaryo viloyatida davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish tajriba-sinov loyihasini (keyingi o'rinlarda — tajriba-sinov loyihasi) amalga oshirish;

aholining barcha qatlamlarini sifatli va zarur tibbiy yordam bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan tibbiy xizmatlar strategik xaridi tizimini joriy etish;

tajriba-sinov loyihasi doirasida aholining barcha qatlamlariga davlat tomonidan kafolatlangan hajmlarda sifatli va to'liq tibbiy yordam ko'rsatilishini moliyalashtirish;

tajriba-sinov loyihasi doirasida Davlat budjetidan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlarini qoplash maqsadida ajratiladigan mablag'larni jamlash, boshqarish, ularning maqsadli va samarali sarflanishini tashkil etish;

davlat tibbiy sug'urtasining yagona axborot tizimi, ma'lumotlar bazasi va boshqa axborot resurslarini yaratish, ularning lozim darajada ishlashini ta'minlash;

tajriba-sinov loyihasining natijalariga ko'ra, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini respublikaning boshqa hududlarida bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

9. Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etadi va boshqaradi;

aholining barcha qatlamlariga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam ko'rsatilishini moliyalashtiradi;

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rta va uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqadi, shuningdek, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda har yili Jamg'arma budjetini shakllantiradi;

davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordamni moliyalashtirish maqsadida Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larni va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlarni jamlaydi va boshqaradi;

davlat tibbiy sug'urtasi dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ularni amalga oshirish tadbirlarini belgilangan tartibda moliyalashtiradi;

tibbiy xizmatlar strategik xaridlari mexanizmlarini ishlab chiqadi va davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan tibbiy xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshiradi;

davlat tibbiy sug'urtasi tizimi ishtirokchilari tomonidan Jamg'arma mablag'laridan oqilona va maqsadli foydalanilishini tashkil etadi, davlat tibbiy sug'urtasi dasturi doirasida tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomasi shartlari bajarilishini monitoring qiladi;

davlat tibbiy sug'urtasining yagona elektron axborot tizimi va resurslarini boshqaradi hamda ularning uzluksiz ishlashini ta'minlaydi, shuningdek, ushbu axborot tizimi va resurslaridan foydalanish tartibini belgilaydi;

tibbiy kadrlar salohiyatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda, shu jumladan tibbiyot muassasalari uchun moliya menejeri va klinik menejeri mutaxassislarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilishda ishtirok etadi;

davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan tibbiy xizmatlar paketini ishlab chiqish va takomillashtirishda ishtirok etadi;

davlat tibbiy sug'urtasi tizimini takomillashtirish hamda kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni amalga oshirish choralari ko'radi;

aholining davlat tibbiy sug'urtasi tizimi va uning ishlash tartibi to'g'risidagi xabardorlik darajasini oshirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qiladi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining davlat tibbiy sug'urtasi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

davlat tibbiy sug'urtasi sohasida xalqaro aloqalarni amalga oshiradi, xorijiy tajribani o'rganadi va eng yaxshi amaliyotni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Jamg'armaning huquq va majburiyatlari**

10. Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish doirasida quyidagi huquqlarga ega:

davlat tibbiy sug'urtasi tizimiga oid axborotni ushbu tizim ishtirokchilaridan belgilangan tartibda olish;

budget buyurtmalarini tayyorlash va Davlat budgetidan mablag' olish uchun budget so'rovlarini tuzish;

Jamg'arma mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish;

agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tibbiy sug'urtasi sohasida uslubiy hujjatlar, hisobotlar va arizalar shakllari, hisob reyestrlari, dalolatnomalar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish tartibini belgilash;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq konsalting, noshirlik va o'qitish faoliyatini tashkil etish;

belgilangan tartibda asbob-uskuna, inventar, tovar va xizmatlarni xarid qilish;

davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shuningdek, boshqa tashkilot va muassasalardan o'z vakolatlari doirasida zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

davlat tibbiy sug'urtasi sohasida xorijiy va mahalliy ekspertlar hamda maslahatchilarni shartnoma asosida jalb qilish;

o'z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish doirasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Jamg'arma quyidagilarga majbur:

Jamg'armaning mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash;

tibbiy xizmatlar xaridini tegishli moliya yili uchun rejalashtirilgan mablag'lar hajmi doirasida amalga oshirish;

davlat tibbiy sug'urtasi tizimi ishtirokchilariga nisbatan o'rnatilgan talablarga javob beruvchi tibbiyot tashkilotlari va boshqa ishtirokchilar bilan davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan tibbiy xizmatlar xaridi bo'yicha shartnomalar tuzish;

bemorlar haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan ularga tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida olingan boshqa ma'lumotlarni qonun talablariga muvofiq sir saqlash;

davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan tibbiy xizmatlardan aholining qoniqish darajasini tahlil qilish;

fuqarolar murojaatlarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqish;

qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan shakl bo'yicha va muddatlarda moliyaviy hisobot va boshqa hisobotlarni shakllantirish hamda ularni tegishli davlat organlariga taqdim etish;

davlat tibbiy sug'urtasi sohasida xodimlar salohiyatini muntazam ravishda oshirib borish.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish doirasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi**

12. Jamg'arma budjetini shakllantirish va ijro etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

Davlat budjetidan olingan mablag'lar;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jamg'armaning g'azna hisobvaraqlarida vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar. Ushbu daromadlarning 50 foiz qismi Jamg'arma ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalari faoliyatini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlashga yo'naltiriladi;

*(13-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2022-y., 07/22/103/0070-son)*

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik hayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

14. Jamg'arma mablag'lari Jamg'arma Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan xarajatlar smetasiga muvofiq quyidagi maqsadlar uchun yo'naltiriladi:

davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xarid qilish;



davlat tibbiy sug'urtasi dasturini hamda imtiyozli dori vositalari ta'minotini moliyalashtirish;

Jamg'armaning tasdiqlangan budjeti doirasida maqsadli dasturlar va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jamg'arma ijro etuvchi apparati va hududiy bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, shu jumladan moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash;

*(14-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2022-y., 07/22/103/0070-son)*

axborot va aloqa xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish;

bank xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish;

tibbiy sug'urta sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

15. Jamg'arma har yili kelgusi moliya yillari uchun davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmi prognozlari asosida uni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar hisob-kitobini ishlab chiqadi.

16. Budget so'rovi Jamg'arma tomonidan tayyorlanadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

17. Jamg'arma faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili tashqi auditdan o'tkaziladi.

### **5-bob. Jamg'armani boshqarish**

18. Jamg'arma Kuzatuv kengashi va Jamg'arma ijro etuvchi apparati Jamg'armaning boshqaruv organlari hisoblanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

19. Jamg'arma Kuzatuv kengashi Jamg'armaning yuqori boshqaruv organidir.

*(19-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Jamg'arma Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi.

20. Jamg'arma Kuzatuv kengashining majlislari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi, ularga Jamg'arma Kuzatuv kengashining raisi, Jamg'arma Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning o'rinbosari raislik qiladi.

21. Jamg'arma Kuzatuv kengashining majlisi, agar a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa, huquqiy vakolatli bo'ladi (kvorumga ega bo'ladi).

Jamg'arma Kuzatuv kengashining qarori uning majlisda qatnashgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Jamg'arma Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

22. Jamg'armaning Kuzatuv kengashi:

Jamg'arma daromad va xarajatlarning prognoz parametrlarini hamda yillik xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan tibbiy xizmatlar tariflari yuzasidan ishlab chiqilgan takliflarni kelishadi;

Jamg'arma ijro etuvchi apparati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida hisobotlarni eshitadi va tasdiqlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarning davlat tibbiy sug'urtasi sohasiga oid masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi;

Jamg'armaning ijro etuvchi direktori hamda uning o'rinbosarlari lavozimlariga nomzodlarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taqdimnoma kiritadi;

Jamg'arma faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlaydi;

Jamg'armaning bo'sh turgan mablag'laridan foydalanish tartibini belgilaydi;

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati xodimlariga ularning egallab turgan asosiy lavozimlari bo'yicha lavozim maoshlariga ustama va boshqa rag'batlantirish to'lovlarini belgilash tartibini tasdiqlaydi;

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati faoliyatini, shu jumladan uning daromad va xarajatlar prognoz parametrlari ijrosini, mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazorat qiladi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

### **6-bob. Jamg'arma faoliyatini tashkil etish**

23. Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarni doirasida tashkil etadi va amalga oshiradi.

24. Jamg'armaga uning Kuzatuv kengashi taqdimnomasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasini tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan ijro etuvchi direktor rahbarlik qiladi. Ijro etuvchi direktor Jamg'armaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

25. Jamg'arma ijro etuvchi direktorining o'rinbosarlari Jamg'arma Kuzatuv kengashining taqdimnomasi bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadi.

26. Jamg'armaning ijro etuvchi direktori maqomi, mehnatga haq to'lash, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlari bo'yicha vazirning birinchi o'rinbosariga, uning o'rinbosarlari esa vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi.

27. Jamg'arma ijro etuvchi direktori:

Jamg'arma faoliyatiga rahbarlik qiladi;

o'z vakolatlari doirasida Jamg'armaning ijro etuvchi direktori o'rinbosarlari hamda tarkibiy bo'linmalari rahbarlari o'rtasida lavozim vazifalarini taqsimlaydi;

o'z vakolatlari doirasida Jamg'arma faoliyatiga oid buyruqlar va yo'riqnomalar chiqaradi hamda Jamg'armaning tarkibiy bo'linmalariga ko'rsatmalar beradi;

Jamg'armaning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi, shuningdek, zarur hollarda, Jamg'arma ijro etuvchi apparatining tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to'lash jamg'armasi doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

Jamg'armaning ijro etuvchi apparati xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobi yuritilishini, statistika va buxgalteriya hisobotlari tuzilishini hamda ular tegishli davlat organlariga belgilangan tartibda taqdim etilishini tashkil qiladi;

Jamg'armaning Kuzatuv kengashi majlislarida maslahat ovozi huquqi bilan qatnashadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

28. Jamg'armaning ijro etuvchi apparati xodimlariga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorda ko'p yillik ishlaganlik uchun har oylik ustama to'lanadi (rag'batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan koeffitsentlarda): 1 yildan 3 yilgacha — 0,3, 3 yildan 5 yilgacha — 0,6, 5 yildan 10 yilgacha — 0,8, 10 yildan 15 yilgacha — 1,0, 15 yildan 20 yilgacha — 1,2, 20 yildan yuqori — 1,5. Bunda, ko'p yillik ustama olish huquqini beruvchi ish staji Jamg'arma Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tartib asosida amalga oshiriladi.

*(28-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son)*

29. Jamg'armaning ijro etuvchi apparati xodimlariga davlat boshqaruvi organlari xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etiladi hamda ularning lavozim maoshlarini Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga asosan belgilashda tarif koeffitsiyenti 2,0 baravarga oshirilgan holda qo'llaniladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bo'sh ish o'rinlari hisobiga iqtisod qilingan ish haqi fondi mablag'lari Jamg'arma xodimlarini moddiy rag'batlantirish (ustama, qo'shimcha haq, oylik mukofotlar va boshqalar)ga yo'naltiriladi.

*(29-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-103-sonli qaroriga asosan ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2022-y., 07/22/103/0070-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

30. Jamg'arma ajratilgan mablag'lar doirasida tibbiyot, iqtisodiyot, moliya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa sohalar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni Kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda fuqarolik huquqiy shartnoma asosida ishga jalb qilish huquqiga ega.

*(30-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

### **7-bob. Hisobga olish, hisobot va nazorat**

31. Jamg'armaning ijro etuvchi apparati davlat tibbiy sug'urtasi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun haq to'lash va boshqa to'lovlarni moliyalashtirishni Jamg'armaning tasdiqlangan budjeti doirasida amalga oshirish hamda Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanish uchun javobgardir.

32. Jamg'armaning ijro etuvchi apparati Moliya vazirligiga belgilangan muddatlarda davriy hisobotlarni taqdim etadi.

33. Jamg'arma mablag'laridan belgilangan tartibda foydalanilishi ustidan nazorat Jamg'armaning ijro etuvchi apparati tomonidan amalga oshiriladi.

34. Jamg'arma mablag'laridan maqsadli hamda samarali foydalanilishini nazorat qilish Jamg'armaning ichki audit xizmati, shuningdek, Moliya vazirligi hamda Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladi.

### **8-bob. Yakunlovchi qoidalar**

35. Jamg'armani qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

36. Jamg'armaning doimiy saqlanadigan hujjatlari, Jamg'arma tugatilgan taqdirda, belgilangan tartibda Davlat arxiviga topshiriladi.

37. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi PQ-216-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son qaroriga

5-ILOVA

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi Kuzatuv kengashining**

**TARKIBI**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Tuychiyev Laziz Nodirovich	— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisining birinchi o‘rinbosari, <i>Kuzatuv kengashi raisi</i>
Inoyatov Amrillo Shodiyevich	— sog‘liqni saqlash vazirining birinchi o‘rinbosari, <i>Kuzatuv kengashi raisining o‘rinbosari</i>
Norqulov Ilhom Ibroximovich	— iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari
Sharaxmetov Shaxrux Shaturgunovich	— Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi
Azizov Abdulla Abdisalamovich	— sog‘liqni saqlash vazirining o‘rinbosari
Abruyev Jamshid Ismailovich	— moliya vazirining o‘rinbosari
Mirzayev G‘ofurjon G‘aniyevich	— Sirdaryo viloyati hokimi
Yuldashev Rustam Shavkatovich	— Sirdaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
Alimov Nasim Hoshimovich	— O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi raisi
<i>lavozimi bo‘yicha</i>	— Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ijro etuvchi direktori, <i>Kuzatuv kengashining kotibi</i>

Izoh: Jamg‘armaning Kuzatuv kengashi tarkibi a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

*(5-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4890-son qaroriga  
6-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi  
“Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va  
davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy  
etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4890-son qarorining  
alohida bandlari ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan**

**HARAKATLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi		
		Respublika darajasida	Viloyat darajasida	Tuman (shahar) darajasida
1.	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami	1. Amaldagi umumiy amaliyot	1. “Tibbiyot brigadalari”ni tashkil	1. “Tibbiyot brigadalari”ni

<p>muassasalarida oilaviy shifokor, uning terapiya va pediatriya yo'nalishlari bo'yicha yordamchilari, patronaj xamshiralari va doyadan iborat bo'lgan "tibbiyot brigadalari" faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>	<p>shifokori va xamshiralari o'rniga oilaviy shifokor, uning terapiya va pediatriya yo'nalishlari bo'yicha yordamchilari, patronaj xamshiralari va doyadan iborat bo'lgan "tibbiyot brigadalari"ni tashkil qilish, ularning malaka talablari hamda funksional vazifalarini ishlab chiqish.</p> <p><b>mas'ul:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p>qilish uchun kadrlar ro'yxatini tasdiqlash.</p> <p><b>mas'ul:</b> Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevral</p>	<p>tashkil qilish uchun kadrlar nomzodini saralab olish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>
	<p><b>2.</b> "Tibbiyot brigadalari" faoliyatini samarali tashkil qilish, maqsadli patronaj va skrining tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha ularni qayta o'qitish.</p> <p><b>mas'ul:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-iyun</p>	<p><b>2.</b> "Tibbiyot brigadalari" faoliyatini samarali tashkil qilish, maqsadli patronaj va skrining tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha ularni qayta o'qitishga ko'maklashish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati hokimligi (G'. Mirzayev), Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-iyun</p>	<p><b>2.</b> "Tibbiyot brigadalari" faoliyatini yo'lga qo'yish, uni doimiy nazorat qilish va tibbiyot xodimlarini malakasini tizimli ravishda oshirib borilishini ta'minlash.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-iyundan boshlab</p>
		<p><b>3.</b> "Tibbiyot brigadalari"ni to'liq shakllantirib faoliyatini yo'lga qo'yish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati hokimligi (G'. Mirzayev),</p>	

			<p><i>Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</i></p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-iyul</p>	
2.	<p>Davlat tomonidan <b>kafolatlangan tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketini</b> joriy etish.</p>	<p><b>1.</b> Kafolatlangan paketga kiritiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari hajmini aniqlash.</p> <p><b>mas'ullar:</b> <i>Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Iqtisodiy t araqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I. Norqulov)</i></p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevral</p>	<p><b>1.</b> Viloyat darajasidagi muassasalarda bemorlarga kafolatlangan paketga kiritiladigan tibbiy xizmatlar to'liq hajmda ko'rsatilishini va ularning zarur dori vositalari bilan ta'minlanishini tashkil etish.</p> <p><b>mas'ul:</b> <i>Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</i></p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevraldan boshlab</p>	<p>Tuman darajasidagi muassasalarda bemorlarga kafolatlangan paketga kiritiladigan tibbiy xizmatlar to'liq hajmda ko'rsatilishini va ularning zarur dori vositalari bilan ta'minlanishini tashkil etish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> <i>Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari</i></p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevraldan boshlab</p>
		<p><b>2.</b> Tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi doirasida ko'rsatiladigan tibbiy yordamni o'z vaqtida moliyalashtirish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> <i>Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev)</i></p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevraldan boshlab</p>	<p><b>2.</b> Viloyat va tuman darajasidagi muassasalarda bemorlarga kafolatlangan paketga kiritiladigan tibbiy xizmatlar to'liq hajmda ko'rsatilishini va ularning zarur dori vositalari bilan ta'minlanishini nazorat qilish.</p> <p><b>mas'ul:</b> <i>Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</i></p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevraldan boshlab</p>	
3.	<p>Aholining sog'lig'i bilan bog'liq ko'rsatkichlarini shakllantirish, monitoring qilish hamda dori vositalari uchun</p>	<p><b>1.</b> Sirdaryo viloyati tibbiyot muassasalarini kompyuter texnikasi bilan ta'minlash, bunda xalqaro</p>	<p><b>1.</b> Tibbiyot muassasalarini optik-tolali aloqa liniyalari bilan ta'minlash.</p>	<p>Tibbiyot muassasalarida joriy etilayotgan axborot tizimlaridan foydalanishni tashkil</p>

	<p>retsept yozish <b>yagona elektron platformasini</b> yaratish.</p>	<p>moliya institutlarining imtiyozli kredit mablag'larini jalb qilish. <b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Azizov, Sh. Sharaxmetov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (L. Kudratov), Moliya vazirligi (J. Abruyev) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-iyun</p>	<p><b>mas'ullar:</b> Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining hududiy boshqarmasi, Sirdaryo viloyati hokimi (G'. Mirzayev), Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p>etish hamda ma'lumotlar bazasi vaqtida va to'liq shakllantirib borilishini ta'minlash. <b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari <b>muddat:</b> axborot tizimlari joriy etilishi bilan</p>
	<p><b>2.</b> "Elektron poliklinika" va davlat tibbiy sug'urtasi axborot tizimlari hamda ma'lumotlar bazasini joriy qilish. <b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Azizov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Pekos) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-iyul</p>	<p><b>2.</b> Viloyat tibbiyot muassasalarini joriy etilayotgan axborot tizimlariga ulanishi va ulardan doimiy foydalanishini ta'minlash. <b>mas'ul:</b> Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev) <b>muddat:</b> axborot tizimlari joriy etilishi bilan</p>		
	<p><b>3.</b> "Elektron retsept" axborot tizimini ishlab chiqish va joriy qilish. <b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Azizov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Pekos) <b>muddat:</b> 2022-yil 1-yanvar</p>	<p><b>3.</b> Hududdagi tibbiyot xodimlari uchun joriy etilayotgan axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish. <b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati hokimligi (G'. Mirzayev), Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev) <b>muddat?:</b> 2021-yil 1-iyun</p>		
<p><b>4.</b></p>	<p>Quyidagilarni nazarda tutuvchi <b>tibbiy</b></p>	<p><b>1.</b> Hududlarning o'ziga xos xususiyati, kasallik</p>	<p><b>1.</b> Joriy qilinayotgan yangi tibbiy profilaktika va patronaj</p>	<p><b>1.</b> Aholini xavf guruhlariga ajratish, ularning</p>



	<p><b>profilaktika va patronaj</b> xizmatlarining yangi tizimini yo'lga qo'yish, jumladan: aholini <b>xavf guruhlariga</b> ajratish, ularning salomatligini <b>davriy kuzatuvga</b> olish; muayyan kasalliklar bo'yicha <b>maqsadli skrining</b> tekshiruvlar o'tkazish; <b>maqsadli patronaj</b> tizimini joriy qilish.</p>	<p>turlari, fuqarolarning yoshi, kasallanish darajasi va boshqa omillardan kelib chiqib xavf guruhlarini aniqlash mezonlarni belgilash. <b>mas'ul:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p>tizimi bo'yicha tibbiyot xodimlarini o'qitishga ko'maklashish. <b>mas'ul:</b> Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvardan boshlab</p>	<p>salomatligini davriy kuzatib borish. <b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari <b>muddat:</b> doimiy</p>
		<p><b>2.</b> Maqsadli skrining va maqsadli patronaj bilan qamrab olinadigan kasallik turlari va fuqarolar kontingentini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish tartibini ishlab chiqish. <b>mas'ul:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p><b>2.</b> Aholini xavf guruhlariga ajratilishini, ularning salomatligini davriy kuzatib borilishini, shuningdek, maqsadli skrining va maqsadli patronaj ishlari to'g'ri tashkil etilishini nazorat qilish. <b>mas'ul:</b> Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev) <b>muddat:</b> doimiy</p>	<p><b>2.</b> Maqsadli skrining va maqsadli patronaj bilan qamrab olinadigan fuqarolar ro'yxatini shakllantirish va ularni ushbu ko'riklardan muntazam o'tkazib borish. <b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari <b>muddat:</b> doimiy</p>
		<p><b>3.</b> Joriy qilinayotgan yangi tibbiy profilaktika va patronaj tizimini tibbiyot xodimlariga o'rgatish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish. <b>mas'ul:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov) <b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>		
<p><b>5.</b></p>	<p>Viloyat tibbiyot muassasalarida aholiga kafolatlangan tibbiy</p>	<p><b>1.</b> Tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik</p>	<p>Tibbiyot muassasalarining jihozlanganlik darajasi</p>	<p>Tibbiyot muassasalarining jihozlanganlik</p>

	<p>xizmatlar paketi asosida tibbiy yordam ko'rsatish uchun <b>zarur moddiy-texnik bazani</b> yaratish.</p>	<p>ta'minotini tahlil qilib, zarur bo'lgan tibbiy texnika, tibbiyot buyumlari va boshqa moddiy boyliklar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I. Norqulov)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p>bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, shu jumladan ta'mir talab tibbiy texnikalarni aniqlash, ularni ta'mirlash (yangilash) bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati hokimligi (G. Mirzayev), Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p>darajasini tahlil qilish, shu jumladan ta'mir talab tibbiy texnikalarni aniqlash, ularni ta'mirlash (yangilash) bo'yicha takliflar ishlab chiqish va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga kiritish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>
	<p><b>2.</b> Tibbiyot muassasalarida aholiga kafolatlangan paket asosida tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur moddiy texnik bazani yaratish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-may</p>			
<p><b>6.</b></p>	<p>Viloyat darajasidagi tibbiyot muassasalari faoliyatini o'rganib, ular negizida <b>"tibbiyot klasteri"</b>ni tashkil qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.</p>	<p><b>1.</b> Tibbiyot muassasalari faoliyati, moddiy-texnik bazasi va joylashuvini tahlil qilib, "tibbiyot klasteri" tashkil etish to'g'risida taklif tayyorlash.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi</p>	<p>Tibbiyot muassasalari faoliyatini o'rganib, samarasiz faoliyat yuritayotgan bo'g'inlarni aniqlash, qayta moslashtirish zarur bo'lgan, shuningdek boshqaruv xarajatlarini maqbullashtirish mumkin bo'lgan muassasalar bo'yicha takliflar shakllantirish.</p>	

	<p>(I. Norqulov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	<p><b>mas'ullar:</b> Sirdaryo viloyati hokimligi (G'. Mirzayev), Sirdaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi (R. Yuldashev)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-yanvar</p>	
	<p><b>2.</b> "Tibbiyot klasteri"ni tashkil etish konsepsiyasi va dastlabki loyhasini ishlab chiqish.</p> <p><b>mas'ullar:</b> Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov), Qurilish vazirligi (Sh. Xidoyatov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (I. Norqulov)</p> <p><b>muddat:</b> 2021-yil 1-fevral</p>		

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 07/20/4890/1514-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son; 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son; 27.01.2022-y., 07/22/103/0070-son, 26.04.2022-y., 07/22/216/0343-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son)